

THE IMPORTANCE OF THE MEMORY PROCESS IN HUMAN LIFE

Anvarjon Askarov Rahimjon ogli,
2nd year master's student in Fardu psychology

Abstract: Memory is very important in human life. Memory not only reflects the things and events of the present, but also the things and events of the past, the feelings and thoughts that we experience. When we didn't have memory, we only reflected what was being perceived and what was happening, and what was being perceived always seemed new and unfamiliar to us. Memory develops skills and abilities, enriches knowledge and expands the level. Memory is of great importance for the functioning and development of other mental processes

Keywords: Memory, human life, skills and abilities, enriches knowledge

XOTIRA JARAYONINING INSON HAYOTIDAGI AHAMIYATI


Anvarjon Asqarov Rahimjon o'g'li
Fardu psixologiya yo'nalishi 2-kurs magistranti

Xotira inson hayotida g'oyat katta ahamiyatga egadir. Xotira tufayli ongimizda faqat hozirgi paytdagi narsalar, hodisalar aks etib qolmay, balki o'tmishda idrok qilingan narsa va hodisalar, kechirgan tuyg'u, fikrlar ham aks etadi. Xotiraga ega bo'lmaganimizda biz idrok qilinayotgan narsa va hodisalarnigina aks ettirar edik, shu bilan birga, idrok qilinayotgan narsa va hodisalar hamma vaqt bizga yangi, notanishdek ko'rinar edi. Odam xotira tufayli malaka va ko'nikmalar hosil qiladi, bilimni boyitadi va saviyasini kengaytiradi. Xotira boshqa psixik jarayonlarning faoliyati va taraqqiyoti uchun katta ahamiyatga egadir. Xotira mahsuli bo'lgan tasavvur, shuningdek, fikr bilim va bizning tajribalarimiz xotiramizda mustahkam o'rnatilib qolsa, bu bilan xayol, tafakkur, nutq, iroda va his faoliyati hamda taraqqiyoti uchun sharoit ta'minlangan bo'ladi. Odamning tasavvurlari boyligi va xotirasida mustahkam o'rnatilib qolgan bilimlari boyligi qanchalik boy bo'lsa, uning idroki ham shunchalik mazmundor, to'la, aniq bo'ladi. Xayol, tafakkur, nutq va irodasining faoliyati ham samarali bo'ladi. Men malakaviy amaliyot davrida xotira, shuningdek eslab qolish bilan jiddiy muammoga duch kelgan, xususan bu holat patologiya darajasiga borib yetgan shaxslarni uchratmaganligim tufayli tadqiqotni o'z xotirasidan, eslab qolish qobiliyatining pasayishidan shikoyat qilayotgan, shuningdek boshqa tengquroriga nisbatan xotiraga oid metodikalarda pastroq natija ko'rsatgan 23 ta sog'lom shaxsni tadqiqotimga obyekt etib belgilandi.

Tadqiqotimning obyekt etib belgilangan 23 nafar o'quvchini "Xotira xususiyatlarini aniqlash" metodikasi yordamida ajratib olindi. Ushbu metodika xotira xususiyatlarini aniqlash maqsadida ishlatiladi. Men undan o'quvchilarning xotira xususiyatlarini aniqlash bilan birga ularning eslab qolish darajasini aniqlash maqsadida ham foydalanildi. Metodikani o'quvchilarda o'tkazish uchun daftariga 1 dan 50 gacha tartib raqamlari qo'yib chiqiladi. Shundan so'ng men ularga 50 juft so'zlarni bir marta o'qib beraman. So'ng men birinchi so'zlarni o'qib beraman, ular esa tegishli raqamga ikkinchi so'zlarni yozib borishlari kerak. Metodika natijalarini amaliy tahlilida esa men juft so'zlarning qatorini o'qiyman. Agar ular ikkinchi so'zni to'g'ri yozgan bo'lsa, unda « + » qo'yishadi, noto'g'ri yoki umuman yozmagan bo'lsa, unda « - » qo'yiladi. Metodika natijalarini hisoblashda esa har bir so'z birikmasi bo'yicha (butun-bo'lak, predmet, xususiyat) tajribada ishtirok etgan barcha talabalar uchun o'rtacha arifmetik miqdor hisoblab chiqiladi. Eslab qolish qobiliyati past o'quvchilarni aniqlash maqsadida ma'lumotning 15% va undan kam qismini xotirasida saqlab qolgan o'quvchilarni kurs ishiga obyekt qilib tanladim. Ushbu jadvalda o'quvchilarning "Xotira xususiyatlarini aniqlash" metodikasi bo'yicha natijalar tahlili aks ettirilgan. Unga ko'ra natijalar metodikaning tuzilishiga asoslangan holda 5 ta yo'nalishga ko'ra aniqlandi.

t/r	O'quvchilarning FISH	Butun-bo'lak	Predmet-xususiyat	Odatdan tashqari birikma	Contrast	Sabab oqibat
1.	Qayumova Dilrabo	3	5	2	4	4
2.	Soliyeva Mahliyo	2	1	0	0	2
3.	Tohirova Mohlaroy	1	1	0	1	1
4.	Akbarova Dilzoda	2	2	4	0	4
5.	Karimov Bekzod	3	2	1	1	1
6.	Jo'rayev Shahzod	4	3	2	4	5
7.	Qurbonova Malika	1	2	0	0	3
8.	Odilova Sadoqat	1	2	4	6	4
9.	Rasuljonova Adolat	4	3	3	3	3
10.	Salohiddinov Farxod	3	2	3	5	6
11.	Abdullayeva Omina	1	1	1	1	1
12.	Botirov Ahad	5	5	4	7	6
13.	Latipov Muhsin	4	1	4	2	5
14.	Tolipov Azamat	4	5	3	5	4
15.	Jalilova Ziyoda	1	2	1	2	2
16.	Sobirov Akmal	3	0	1	1	1
17.	Teshaboyeva Komila	1	0	1	2	2
18.	Ermatov Xasanboy	1	1	3	0	1
19.	Nuriddinova Farida	6	6	6	8	9
20.	Zokirov Nodir	2	1	2	2	1
21.	Vohidov G'ulom	5	3	6	8	7
22.	Yo'lchiyeva Anora	1	1	0	3	1
23.	Qbilov Ikrom	4	6	9	8	7

“Xotira xususiyatlarini aniqlash ” metodikasi jami 23 nafar o'quvchilarda o'tkazildi. Ulardan olingan natijalar tahliliga ko'ra 11 nafar o'quvchi Soliyeva Mahliyo, Tohirova Mohlaroy, Karimov Bekzod, Qurbonova Malika, Abdullayeva Omina, Jalilova Ziyoda, Sobirov Akmal, Teshaboyeva Komila, Ermatov Xasanboy, Zokirov Nodir, Yo'lchiyeva Anoralar 15% hamda undan kam natijani qayd etishdi. Bunda ularning boshqalarga nisbatan xotira jarayoni va eslab qolish imkoniyatlari past ekanligiga asoslanildi.



XULOSA

Xotira inson hayotida g'oyat katta ahamiyatga egadir. Xotira tufayli ongimizda faqat hozirgi paytdagi narsalar, hodisalar aks etib qolmay, balki o'tmishda idrok qilingan narsa va hodisalar, kechirgan tuyg'u, fikrlar ham aks etadi. Odam xotira tufayli malaka va ko'nikmalar hosil qiladi, bilimni boyitadi va saviyasini kengaytiradi. Xotira boshqa psixik jarayonlarning faoliyati va taraqqiyoti uchun katta ahamiyatga egadir. Xotira mahsuli bo'lgan tasavvur, shuningdek, fikr bilim va bizning tajribalarimiz xotiramizda mustahkam o'rinish qolsa, bu bilan xayol, tafakkur, nutq faoliyati hamda taraqqiyoti uchun sharoit ta'minlangan bo'ladi. Odamning tasavvurlari boyligi va xotirasida mustahkam o'rinish qolgan bilimlari boyligi qanchalik boy bo'lsa, uning idroki ham shunchalik mazmundor, to'la, aniq bo'ladi. Xayol, tafakkur, nutq va irodasining faoliyati ham samarali bo'ladi. Psixikaning eng muxim xususiyati shundan iboratki, tashki ta'sirotlarning aks ettirilishi individning shundan keyingi xatti-xarakterlarida doimiy ravishda foydalaniladi. Inson xatti xarakterlarining asta-sekin murakkablashib borishi individual tajribaning orta borishi bilan ro'y beradi. Agar tashki olamning miya po'stida xosil bo'lgan obrazlari diom daraksiz yo'qolib ketadigan bo'lsa, tajribaning tarkib topishi mutlaqo mumkin bo'lmay qolar edi. Tashki olam obrazlari o'zaro turli tarzda bog'lanib, mustahkamlanadi va xayot xamda faoliyat talablariga mos ravishda esda saqlanadi va tiklanadi. Aynan xotira jarayoni borligi uchun inson oldingi bo'lib o'tgan predmet va xodisalarni esda olib kolish, esda saqlash va esga tushirish va unutish bilan bog'lik o'tmishni psixik va aks ettirish xususiyatini namoyon qiladi.

Foydalanilgan Adabiyotlar.

1. David F. Lohman, Joni M. Lakin. Reasoning and Intelligence. New York: Cambridge University Press - 2009
2. Duane P. Schuls. Theories of Personality. Wadsworth, a division of Thomson Learning, Inc. Copyright © 2005.-550p.
3. The Cambridge Handbook of Personality Psychology// Edited by Philip J. Corr. Cambridge University Press 2009

4. Андреев О.А. Тренируем свою память. /серия психологических практикум/ Ростов на Дону.2004.- 224 с.
5. G'oziyev E.G'. Psixologiya. -T., O'zMU «Universitet», 2003.
6. G'oziyev E.G'. Tafakkur psixologiyasi. Toshkent: Universitet ,1990.
7. G'oziyev E.G'. Хотира psixologiyasi. ToshDU,1994.
8. Зинченко Т.П. Память в экспериментальной и когнитивной психологии.- СПб. 2002.
9. Крылов А.А., Маничева С.А. Практикум по общей, экспериментальной и прикладной психологии.- СПб.: 2005.-550 с.